



*2024- yil yanvar- sentabr oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
Tel. (75) 221-44-28*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Qashqadaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 947462,6 ming AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 483832,5 ming AQSH dollariga yoki 2,0 martaga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar-sentabr oylarida ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: 947462,6 **+2,0 m.**
(2023- y.: 463630,1)




Saldo
2024- y.: -151681,3
(2023- y.: 134774,3)




Eksport

2024- y.: 402132,6 **+134,4 %**
(2023- y.: 299202,2)



Import

2024- y.: 545330,0 **+3,3 m.**
(2023- y.: 164427,9)













Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 402132,6 ming AQSH dollariga (134,4 % ga ko‘paydi) va import hajmi 545330,0 ming AQSH dollariga (3,3 martaga ko‘paydi). Hisobot davrida -151,681,3 ming AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-sentabr oylarida ming AQSH dollari)



XXR	TURKIYA	AQSH	Rossiya Federatsiyasi	Niderlandiya
TSA – 241187,5	TSA – 201440,0	TSA– 111491,8	TSA – 72439,5	TSA – 36287,3
Eksport: 17082,8 Import: 224104,7	Eksport: 56201,0 Import: 145239,0	Eksport: 107034,8 Import: 4457,0	Eksport: 56616,5 Import: 15823,0	Eksport: 69,1 Import: 36218,2
 25,5 %	 21,3 %	 11,8 %	 7,6 %	 3,8 %
Germaniya	BAA	Pokiston	Qozog‘iston	Yaponiya
TSA – 34300,5	TSA – 31370,0	TSA – 29405,2	TSA – 21599,3	TSA – 17790,2
Eksport: 224,7 Import: 34075,8	Eksport: 30036,9 Import: 1340,1	Eksport: 22436,5 Import: 6968,7	Eksport: 15348,7 Import: 6250,6	Eksport: 0,0 Import: 17790,2
 3,6 %	 3,3 %	 3,1 %	 2,3 %	 1,9 %











Qashqadaryo viloyati jahonning 80 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXR (25,5 %), Turkiya (21,3 %), AQSH (11,8 %), Rossiya Federatsiyasi (7,6 %), Niderlandiya (3,8 %), Germaniya (3,6%), BAA (3,3 %), Pokiston (3,1 %) , Qozog‘iston (2,3 %) , Yaponiya (1,9 %) da qayd etilgan.



QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr oylarida ming AQSH dollari)

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	XXR	79261,0	89761,7	241187,5
	<i>Eksport</i>	12895,0	30079,0	17087,8
	<i>Import</i>	66366,0	56682,7	224104,7
	Rossiya Federatsiyasi	65206,0	71266,0	72439,5
	<i>Eksport</i>	45579,2	50891,7	56616,5
	<i>Import</i>	19626,8	20374,3	15823,0
	Turkiya	108075,3	81055,2	201440,0
	<i>Eksport</i>	82607,1	67482,8	56201,0
	<i>Import</i>	25468,2	13572,4	145239,0
	Niderlandiya	2505,9	921,8	36173,3
	<i>Eksport</i>	8,7	21,8	69,1
	<i>Import</i>	2497,2	900,0	36218,2
	Misr	1550,4	9920,6	13757,9
	<i>Eksport</i>	1550,0	9904,7	13757,9
	<i>Import</i>	0,4	15,9	0,0
	AQSH	1293,7	7094,2	111491,8
	<i>Eksport</i>	10,1	4763,8	107034,8
	<i>Import</i>	1283,6	2330,4	4457,0
	Pokiston	7958,7	17494,1	23854,4
	<i>Eksport</i>	7771,6	16277,4	19827,4
	<i>Import</i>	187,1	1216,8	3757,0
	Germaniya	15634,1	5121,2	34300,5
	<i>Eksport</i>	1310,6	259,0	224,7
	<i>Import</i>	14323,6	4862,2	34075,8
	BAA	834,9	34504,0	31377,0
	<i>Eksport</i>	678,9	34462,3	30036,9
	<i>Import</i>	156,0	41,7	1340,1
	Italiya	2269,3	3454,0	3087,9
	<i>Eksport</i>	723,4	1153,0	1063,1
	<i>Import</i>	1545,9	2301,0	2024,8

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	Eron Islom Respublikasi	17155,8	8552,3	12043,3
	<i>Eksport</i>	13944,1	7113,0	9279,2
	<i>Import</i>	3211,7	1439,4	2764,1
	Polsha	9421,4	14329,9	9548,1
	<i>Eksport</i>	7898,9	13221,4	9097,9
	<i>Import</i>	1522,5	1108,5	450,2
	Tojikiston	3517,9	9539,4	12501,3
	<i>Eksport</i>	1670,8	9097,4	11728,2
	<i>Import</i>	1847,1	442,0	773,0
	Qozog'iston	19518,7	29361,2	21599,3
	<i>Eksport</i>	8378,0	13958,4	15348,7
	<i>Import</i>	11140,7	15402,8	6250,6
	Hindiston	10127,8	6385,6	6533,6
	<i>Eksport</i>	6656,4	4844,5	1375,3
	<i>Import</i>	3471,4	1541,1	5158,9
	Yaponiya	8124,5	1763,3	17790,2
	<i>Eksport</i>	161,5	26,6	0,0
	<i>Import</i>	7963,0	1736,7	17790,2
	Litva	1266,1	3738,9	3270,5
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	465,6
	<i>Import</i>	1266,1	3738,9	2804,9
	Vetnam	1886,6	9509,3	4543,0
	<i>Eksport</i>	1886,4	9447,0	4455,4
	<i>Import</i>	0,2	62,3	87,6
	Kanada	1595,5	1518,5	2381,1
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	284,4
	<i>Import</i>	1595,5	1518,5	2096,7
	Bangladesh	0,0	2014,8	2141,3
	<i>Eksport</i>	0,0	2014,8	2141,3
	<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0

QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024-yil yanvar-sentabr oylari ming AQSH doll.)*

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari

50,9 %

Nishon – 481881,6

10,3%

Qarshi – 97123,9

481881,6

10,1 %

Kasbi – 95673,1

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari

0,3 %

Muborak – 2883,0


0,3 %

Chiroqchi – 3228,7

0,4 %

Mirishkor – 3390,1


Yakkabogʻ




Shahrisabz



Chiroqchi



Koʻkdala



Kasbi




Nishon




Muborak



Mirishkor




Kitob



Koson




Qarshi




Qamashi




Dehqonobod



Gʻuzor



Shahrisabz sh.



Qarshi sh.




2023- y.

2024- y.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushini Nishon tumani 50,9 % ulush bilan 481881,6 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushini esa Muborak tumani 0,3 % ulush bilan 2883,0 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport boʻyicha rasmiy statistik maʼlumotlar, Oʻzbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari boʻyicha taqsimlanmagan

QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-sentabr oylarida ming AQSH dollari)



2024- yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 12,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,7 % ga kamaygan.



Qashqadaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,5 martaga ko'paygan va jami TSA dagi ulushi 87,1 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-sentabr oylari holatiga ko'ra, 121864,1 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 92337,3 ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 29526,8 ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



QASHQADARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)

Rossiya – 59,4



Qozog'iston – 17,7



Tojikiston – 10,3



Ozarbayjon – 1,3



Ukraina – 1,7



Moldova
Respublikasi – 1,6



Qirg'iz
Respublikasi – 4,8



Turkmaniston – 0,8



Belarus
Respublikasi – 2,3




Armaniston – 0,2



Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (59,4 %), Qozog'iston (17,7 %) hamda Tojikiston (10,3 %) davlatlari bilan qayd etildi.

QASHQADARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-sentabr oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



Qashqadaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 102886,2 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 75084,8 ming AQSH dollari, import hajmi esa 27801,9 ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-sentabr oylari)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 182 ta ga yetdi va ular tomonidan 402132,6 ming AQSH dollari qiymatini hamda (2023- yilning mos davriga nisbatan 34,4 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-sentabr oylari ulushi % da)



Qashqadaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-sentabr oylari yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	299202,2	402132,6	128,4	134,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	46211,0	48529,6	141,2	105,0	15,5	12,1
Ichimliklar va tamaki	576,4	628,9	137,5	109,1	0,2	0,2
Yoqilg‘idan tashqari nooziq-ovqat xom ashyo materiallari	71,2	20,0	16,2	28,1	0,1	-
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	49181,7	152838,5	4,4 m.	3,1 m.	14,3	38,0
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	12,0	1969,1	8,5	16,5 m.	0,0	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	1539,2	926,1	34,7	60,2	0,4	0,2
Sanoat tovarlari	189557,2	189287,0	110,8	99,9	66,5	47,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	5731,1	1978,0	3,1 m.	34,5	1,9	0,5
Turli xil tayyor buyumlar	273,3	-	110,3	-	0,1	-
Boshqa tovarlar	3287,8	2473,6	45,8	75,2	0,0	0,6
Xizmatlar	2761,3	3481,8	83,3	126,1	0,9	0,9

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,1 % ni tashkil etib, ulardan sanoat tovarlari (47,1 %), mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar (38,0 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,1 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2024- yil yanvar-sentabr oylari)



XSST bo'limi nomi

Ming
AQSH
dollari

2023- yilning
mos davriga
nisbatan,
% da

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar

48529,6

105,0

Sabzavotlar va mevalar

44070,4

128,8

Yoqilg'idan tashqari noziq-ovqat xomashyo

20,0

28,1

Cho'yan va po'lat

20,0

23,0

O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo

-

-

Rangli metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar

-

-

Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar

152838,5

3,1 m.

Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar

-

-


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	164368,6	99,5
Yigirilgan to'qimachilik iplari, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	-	-
Tabiiy yoki sun'iy gaz	152838,5	3,1
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1978,0	34,5
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	1730,1	36,5
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	247,9	154,5
Boshqa tovarlar	2473,6	75,2
Qurulish materiallari	10970,3	144,7
Xizmatlar	3481,8	126,1

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024-yil yanvar-sentabr oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan eksport ulushi 23,0 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,2 % ga ko'paygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr oylari ming AQSH dollari)



2024- yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, XXR, Pokiston, AQSH, BAA va Qozog'iston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 75,8 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-sentabr oylari % da)






QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-sentabr oylari yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Turkiya	67482,8	56201,0	84,3	83,3	1	3
Rossiya Federatsiyasi	50891,7	56616,5	122,4	111,2	2	2
AQSh	4763,8	107034,8	2,7 m.	22,5 m.	41	1
XXR	30079,0	17082,8	174,6	56,8	4	6
Pokiston	16277,4	22436,5	2,1 m.	137,8	5	5
BAA	34462,3	30036,8	43,7 m.	87,1	3	4
Misir	9904,7	13757,9	8,7 m.	136,6	8	8
Eron Islom Respublikasi	7113,0	9279,2	49,7	138,9	10	10
Polsha	13221,4	9097,8	163,1	68,8	7	12
Tojikiston	9097,4	9279,2	4,8 m.	163,3	11	11
Vetnam	9447,0	4455,3	4,3 m.	102,0	9	14
Qozog'iston	13958,4	15348,7	156,5	110,0	6	7
Bangladesh	2014,8	2141,3	-	106,3	16	17
Afg'oniston	5573,0	11663,8	47,1	2,0 m.	12	9
Portugaliya	461,6	6190,9	4,4 m.	13,4 m.	28	13
Marokash	1589,4	3556,1	-	2,2 m.	19	15
Ozarbajjon	1488,2	1564,1	116,8	105,1	17	22
Moldova Respublikasi	2011,8	1936,7	113,4	96,2	15	19
Hindiston	4844,5	1373,3	94,0	28,3	12	24
Ruminiya	0,0	2297,6	-	-	-	16



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-sentabr oylari ming AQSH doll.)*



2023- y.

2024- y.

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Nishon tumani 37,8 % bilan 152223,6 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Dehqonobod tumani 0,6 % bilan 2273,7 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida 107,3 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,0 martaga ko'paydi.

















Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (27,2 %), Pokiston (22,7%), Rossiya (33,8 %) hamda Afg'oniston (13,2 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 44,1 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 28,9 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 11,0 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-sentabr oylari o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Piyoz</p> <p>6,6 mln. AQSH dollari</p> <p>30,2 ming tonna</p> <p> 3,8 m </p>	<p>Karam</p> <p>3,6 mln. AQSH dollari</p> <p>11,3 ming tonna</p> <p> 4,6 m. </p>	<p>Loviya</p> <p>12,7 mln. AQSH dollari</p> <p>2,7 ming tonna</p> <p> 79,2 % </p>	<p>Uzum</p> <p>2,9 mln. AQSH dollari</p> <p>2,5 ming tonna</p> <p> 40,6% </p>
<p>Pomidor</p> <p>0,6 mln. AQSH dollari</p> <p>0,3 ming tonna</p> <p> 27,3 % </p>	<p>Sabzi</p> <p>2,8 mln. AQSH dollari</p> <p>9,0 ming tonna</p> <p> 2,3 m. </p>	<p>Bodring</p> <p>0,09 mln. AQSH dollari</p> <p>0,1 ming tonna</p> <p> 25,0 % </p>	<p>Sitrus mevalar</p> <p>0,05 mln. AQSH dollari</p> <p>0,03 ming tonna</p> <p> 15,0 % </p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-sentabr oylari)

Davlatlar	Ming tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	12,2	8686,5	19,7
 Rossiya	38,1	14187,1	32,2
 Afg'oniston	3,3	7472,5	17,0
 Qozog'iston	47,8	12085,2	27,4
 Iroq	0,8	328,3	0,7
 BAA	0,3	70,1	0,2
 Turkiya	0,05	45,3	0,1
 Boshqa davlatlar	4,7	1225,1	2,7

* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-sentabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 32,2 % ni).



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.






To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024- yil yanvar-sentabr oylari yakuni bo‘yicha 188970,4 ming AQSH dollari to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 47,0 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 0,2 % ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida paxta tolasi (89,4 %), kiyim-kechak (6,3 %) asosiy ulushni egallagan.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-sentabr oylari ming AQSH dollari)


		2023-y.	2024-y.
	Kiyim-kechak	10363,0	11837,8
	Paxta tolasi	167883,7	169008,2
	Jundan tayyorlangan matolar	257,9	35,0
	Paxtadan tayyorlangan matolar	-	-
	Ipak va undan tayyorlangan matolar	4618,8	3314,5

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-sentabr oylari ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 3481,8 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,8 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 26,0 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (79,4 %), boshqa xizmatlar (20,3 %) va safarlar (turizm) (0,3 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 545330,0 ming AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,3 martaga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (77,9 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (10,5%) hamda yoqilg'dan tashqari nooziq- ovqat homashyo (6,2 %) hamda hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-sentabr oylari ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 380181,6 ming AQSH dollariga ko'paydi va 541848,2 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-sentabr oylari yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	164427,9	545330,0	80,3	3,1 m.	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsu- lotlari va tirik hayvonlar	11508,7	33659,2	117,4	3,0 m.	6,8	6,2
Ichimliklar va tamaki	33,7	208,8	-	6,2 m.	0,4	0,0
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo materiallari	4934,1	4787,3	100,8	97,0	4,5	0,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash Materiallar	9656,4	5630,7	138,8	58,3	5,9	1,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	892,4	110,5	6,5	12,4	0,1	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash Mahsulotlar	22128,1	57203,7	88,0	2,6 m.	14,1	10,5
Sanoat tovarlari	13170,1	14662,7	105,0	111,3	7,1	2,7
Mashinalar va transport asbob uskunalari	94652,6	424716,3	57,1	4,5 m.	57,1	77,9
Turli xil tayyor buyumlar	239,8	238,0	104,3	99,2	0,1	0,1
Boshqa tovarlar	5800,1	3887,5	62,9	67,0	3,0	0,7
Xizmatlar	1411,9	225,3	3,1 m.	16,0	0,9	0,0



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-sentabr oylari)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	33659,2	3,0 m.
Sabzavotlar va mevalar	26764,3	16,3 m.
Tirik hayvonlar	4524,1	99,0
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	1269,3	3,2 m.
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	505,3	11,5 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	21,4	-
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo materiallari	4787,3	97,0
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	1519,5	58,2
Yog'och-taxtalar	0,8	-
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	61,7	3,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	110,5	12,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	5630,7	58,3
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	4394,8	52,1
Tabiiy yoki sun'iy gaz	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	57203,7	2,6 m.
Noorganik kimyoviy materiallar	2720,3	183,3
Organik kimyo birikmalar	2869,0	56,6
Oshlovchi va buyovchi ekstraktlar	133,8	112,2
Oqsil moddalar, modifitsiyalangan kraxmal, elim va fermentlar	172,8	96,4
Boshqa kimyoviy mahsulotlar	40326,4	12,1 m.
Kimyoviy iplar	82,7	12,1
Kimyoviy shtapel tola	802,5	73,7

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	14662,7	111,3
Cho'yan va po'lat	8525,5	119,2
Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar	201,1	25,3
Kauchuk va rezina buyumlar	1343,2	139,2
Rangli metallar	3782,5	6,0 m.
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	0,8	-
Ruda bulmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	2218,0	56,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1415,0	41,1
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	163,5	49,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	424716,3	4,5 m.
Qozonxona (uskunalari, moslamalari va ularning qismlari)	222377,4	4,1 m.
Uskuna va apparatlar	7674,4	150,6
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	-	-
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	-	-
Kanslyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	-	-
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	147085,1	13,6 m.
Metallarni qayta ishlash mashinalari	-	-
Boshqa transport uskunalari	6026,0	7,4 m.
Turli xil tayyor buyumlar	238,0	99,2
Boshqa joyda tasniflanmagan turli xil tayyor buyumlar	233,6	139,0
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebellar	-	-

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2024-yil yanvar-sentabr oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 5,4 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 33,5 % ga (yanvar-sentabr oylari ming AQSH dollari) kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI




■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

 2024- yil yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyati 78 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Turkiya, Qirg'iziston, Germaniya, Niderlandiya, XXR, Rossiya Federatsiyasi va Yaponiya) jami importning 87,4 % ni tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-sentabr oylari % da)





QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI


(yillar kesimida yanvar-sentabr oylari holati)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	59682,7	224104,7	80,5	3,7 m.	1	1
Niderlandiya	900,0	36218,2	36,4	40,2 m.	19	3
Ekvador	175,2	16145,5	58,8	92,1 m.	29	52
Germaniya	4862,2	34075,8	32,4	7,8 m.	6	4
Rossiya Federatsiyasi	20374,2	15823,0	96,3	77,6	2	6
Pokiston	1216,8	6968,7	6,2 m.	5,7 m.	17	10
Turkiya	13572,4	145239,0	46,3	10,7 m.	5	2
Yaponiya	1736,7	17790,2	24,2	10,2 m.	13	5
Litva	3738,9	2804,9	3,8 m.	75,0	9	12
Hindiston	1541,1	5158,3	44,3	3,3 m.	14	8
Kanada	1518,5	2096,7	136,4	138,0	16	15
Qozog'iston	15402,8	6250,6	135,4	40,6	4	7
Eron Islom Respublikasi	1439,4	2761,4	43,4	191,8	15	13
Fransiya	966,0	796,0	135,1	82,4	21	21
Qirg'iz Respublikasi	4367,7	4796,6	81,3	109,8	8	9
AQSh	2330,4	4457,0	163,5	191,2	12	11
BAA	41,7	1340,1	30,6	32,1 m.	37	18
Qo'shma Qirollik	312,9	1512,2	2,9 m.	4,8 m.	26	17
Finlandiya	3,2	278,9	5,3 m.	87,1 m.	52	50
Italiya	2301,0	2024,8	92,2	88,0	10	16



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-sentabr oylari ming AQSH dollari)



2023- y.


2024- y.

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Nishon tumani 60,4 % bilan 329658,0 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Muborak tumani 0,1 % bilan 425,0 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-sentabr oylari ming AQSH dollarida)




2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 225,3 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushini transport xizmatlari (97,8 %) tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 14667,2 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,3 % ga ko'paydi hamda, importning umumiy hajmidagi ulushi 2,7 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-sentabr oylari hajmi, ulushi, % da)

132,0 ming
AQSH doll.
ulushi – 0,9%

6556,2 ming
AQSH doll.
ulushi – 44,7 %

4400,2 ming
AQSH doll.
ulushi – 30,0



Qirg'iziston



**Rossiya
Federatsiyasi**



XXR

73,3 ming
AQSH doll.
ulushi – 0,5 %



Qozog'iston

733,4 ming
AQSH doll.
ulushi – 5,0 %



Eron



2024- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1497,1 ming AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Qirg'iziston – 132,0 ming AQSH dollari (0,9 %) XXR – 4400,2 ming AQSH dollari (30,0 %), Rossiya Federatsiyasi – 6556,2 ming AQSH dollari (44,7 %), Qozog'iston – 73,3 ming AQSH dollari (0,5 %), Eron – 733,4 ming AQSH dollari (5,0 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.